

LOGISTIKA 4.0 – KELAJAK LOGISTIKASI SIFATIDA

Abduxalikova Komila Abduxalikovna
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
“Marketing” kafedrasida stajyor-assistenti
komilaa21@gmail.com

Annotatsiya – Mazkur maqolada Logistika 4.0 tushunchasi, uning zamonaviy iqtisodiyot va ta'minot zanjiri boshqaruvidagi ahamiyati, shuningdek, raqamlashtirish, barqarorlik va chidamlilik kabi ustivor yo'nalishlar tahlil qilingan. Tadqiqotda sun'iy intellekt, narsalar interneti (IoT), RFID, katta ma'lumotlar, sensor texnologiyalari, avtonom transport tizimlari kabi asosiy raqamli yechimlarning logistika jarayonlariga ta'siri yoritilgan. Shuningdek, logistika sohasida raqamlashtirishni joriy etishning afzalliklari, amaliy qiyinchiliklari va istiqbolli rivojlanish tendensiyalari ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari Logistika 4.0 nafaqat jarayonlarni avtomatlashtirish, balki ta'minot zanjiri shaffofligini oshirish, xarajatlarni kamaytirish va korxonalarining raqobatbardoshligini mustahkamlashda muhim omil ekanini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Logistika 4.0, raqamlashtirish, sun'iy intellekt, IoT, RFID, katta ma'lumotlar, avtomatlashtirish, ta'minot zanjiri, avtonom transport, sensor texnologiyalari.

KIRISH

Hozirgi global iqtisodiyot sharoitida logistika tizimlari jadal sur'atlarda transformasiyaga uchramoqda. Ayniqsa, raqamli texnologiyalarning rivojlanishi logistika sohasida an'anaviy yondashuvlarni tubdan o'zgartirmoqda. Bu jarayon Logistika 4.0 konsepsiyasining shakllanishiga asos bo'ldi. Mazkur konsepsiya sanoat 4.0 g'oyalarning logistika sohasiga tatbiq qilinishi natijasida yuzaga kelgan bo'lib, logistika jarayonlarini raqamli texnologiyalar orqali optimallashtirish, avtomatlashtirish va o'zaro integrasiyalashni anglatadi.

XXI asrda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida, jumladan logistika va ta'minot zanjiri boshqaruvi sohasida ham tub o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. To'rtinchi sanoat inqilobi (Industry 4.0) konsepsiyasi ishlab chiqarish, transport, ombor xo'jaligi va taqsimot tizimlarini raqamlashtirish orqali korxonalar faoliyatining samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Ushbu jarayon logistika sohasida yangi bosqich – Logistika 4.0 konsepsiyasining shakllanishiga asos bo'ldi. Logistika 4.0 zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, sun'iy intellekt, narsalar interneti (IoT), katta ma'lumotlar (Big Data), bulutli texnologiyalar, robototexnika va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlariga asoslangan logistika modelini ifodalaydi.

Bugungi globallashtirish sharoitida korxonalar o'rtasidagi raqobat tobora kuchayib borayotgan bir paytda logistika jarayonlarining tezkorligi, aniqligi va moslashuvchanligi muhim strategik omilga aylanmoqda. An'anaviy logistika tizimlari

ko‘plab hollarda ma‘lumotlarni qayta ishlashning sekinligi, inson omiliga bog‘liqligi va operatsion xarajatlarning yuqoriligi bilan tavsiflanadi. Logistika 4.0 esa real vaqt rejimida ma‘lumot almashish, logistika operatsiyalarini avtomatlashtirish va ta‘minot zanjiri ishtirokchilari o‘rtasida integratsiyalashgan boshqaruvni ta‘minlash orqali ushbu muammolarni bartaraf etishga imkon yaratadi.

Jahon amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, rivojlangan davlatlarda Logistika 4.0 texnologiyalarini joriy etish transport xarajatlarini kamaytirish, yuklarni yetkazib berish muddatlarini qisqartirish, ombor resurslaridan samarali foydalanish va mijozlarga xizmat ko‘rsatish sifatini oshirishga xizmat qilmoqda. Xususan, Germaniya, AQSH, Yaponiya, Janubiy Koreya va Xitoy kabi mamlakatlarda logistika jarayonlarini raqamlashtirish iqtisodiy samaradorlikni oshirishning muhim vositasiga aylangan. Ushbu davlatlarda IoT sensorlari, aqlli omborlar, avtomatlashtirilgan transport vositalari, dronlar va sun‘iy intellektga asoslangan prognozlash tizimlari keng qo‘llanilmoqda.

2023 yilda o‘tkazilgan tadqiqotlarga ko‘ra, kompaniyalar logistika sohasidagi asosiy tendensiyalar sifatida uch karrali transformasiyani — raqamlashtirish, chidamlilik va barqarorlikni — e‘tirof etmoqda. Bu esa logistika sohasini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Zamonaviy korxonalar uchun tezkorlik, aniqlik, shaffoflik va moslashuvchanlik asosiy ustuvor vazifalardan biriga aylangan.

Logistika 4.0 sharoitida korxonalar nafaqat tovar va xizmatlarni yetkazib berishni, balki butun ta‘minot zanjiri bo‘ylab axborot almashinuvini, real vaqt rejimida nazoratni va qaror qabul qilish samaradorligini ta‘minlashga intilmoqda. Shu bois mazkur mavzuda ilmiy tahlil olib borish dolzarb hisoblanadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Logistika 4.0 tushunchasi ilmiy adabiyotlarda sanoat 4.0 konsepsiyasining mantiqiy davomi sifatida talqin qilinadi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, logistika jarayonlari axborot-kommunikasiya texnologiyalari bilan chambarchas integratsiyalashgan holda ishlaydi. Ilmiy manbalarda Logistika 4.0ning asosiy jihatlari sifatida quyidagilar ajratib ko‘rsatiladi:

- jarayonlarni avtomatlashtirish;
- ma‘lumotlarni real vaqtda yig‘ish va tahlil qilish;
- ta‘minot zanjiri shaffofligini ta‘minlash;
- resurslardan oqilona foydalanish;
- tezkor va aniq boshqaruv qarorlarini qabul qilish.

Ko‘plab tadqiqotlarda raqamlashtirish logistika tizimlarining raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil sifatida baholanadi. Xususan, RFID texnologiyasi orqali ob'ektlarni identifikatsiya qilish, IoT orqali qurilmalarni tarmoqqa ulash, katta ma‘lumotlar yordamida prognozlash va tahlil qilish, sun‘iy intellekt orqali optimal qarorlar qabul qilish zamonaviy logistika tizimlarining ajralmas qismiga aylanib bormoqda.

Ayrim tadqiqotchilar Logistika 4.0 ni inqilobiy o‘zgarish emas, balki bosqichma-bosqich evolyusion rivojlanish jarayoni sifatida tavsiflaydi. Chunki raqamli yechimlar bir zumda emas, balki logistika infratuzilmasi, kadrlar salohiyati va korporativ

boshqaruv imkoniyatlariga mos holda joriy etilmoqda.

Shu bilan birga, adabiyotlarda kichik va o'rta biznes subyektlarida Logistika 4.0ni tatbiq etishda moliyaviy resurslar, malakali mutaxassislar va texnologik bilimlar yetishmasligi asosiy muammolardan biri sifatida ko'rsatiladi

METODOLOGIYA

Mazkur maqolani tayyorlashda tahliliy, qiyosiy va mantiqiy yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqotning nazariy asosini logistika sohasida raqamlashtirish, avtomatlashtirish va innovation texnologiyalarni joriy etishga oid ilmiy manbalar, tahliliy hisobotlar hamda amaliyotda qo'llanilayotgan yechimlar tashkil etdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Logistika tizimlarida raqamli texnologiyalarni joriy etish birinchi navbatda jarayonlarning samaradorligini oshirishga qaratilgan. Korxonalar uchun raqamlashtirish quyidagi ustunliklarni ta'minlaydi:

- avtomatlashtirish orqali mehnat unumdorligini oshirish;
- ta'minot zanjiridagi uzilish va to'siqlarni kamaytirish;
- real vaqtda monitoring orqali yuqori shaffoflikka erishish;
- bozor o'zgarishlari va mijozlar talablariga tez moslashish;
- marshrutlarni optimallashtirish orqali vaqt va xarajatlarni tejash;
- yetkazib berish ishonchligini oshirish;
- xatolar darajasini pasaytirish;
- ombor va transport xarajatlarini kamaytirish

Demak, raqamlashtirish logistika tizimining nafaqat texnik, balki iqtisodiy samaradorligini ham oshiradi

Logistika 4.0 doirasida bir qator zamonaviy texnologiyalar muhim o'rin tutadi

1. Haydovchisiz transport tizimlari. Bunday tizimlar ayniqsa intralogistikada keng qo'llaniladi. Ular ishlab chiqarish va ombor ichidagi tashish ishlarini avtomatlashtirib, vaqt sarfini qisqartiradi va inson omilidan kelib chiqadigan xatolarni kamaytiradi

2. RFID texnologiyasi. RFID transponderlari orqali har qanday ob'ektni identifikatsiya qilish va joylashuvini aniqlash mumkin. Bu texnologiya logistikada materiallar harakatini aniq kuzatish, ta'minot zanjiri shaffofligini oshirish va aniq hisob-kitob yuritishga xizmat qiladi.

3. Katta ma'lumotlar (Big Data). Zamonaviy korxonalar katta hajmdagi ma'lumotlar bilan ishlaydi. Mazkur ma'lumotlar logistika jarayonlarini rejalashtirish, ehtimoliy uzilishlarni oldindan aniqlash, zaxiralar hajmini optimallashtirish va boshqaruv qarorlarini asoslashda muhim ahamiyatga ega.

4. Sun'iy intellekt (AI). Sun'iy intellekt texnologiyalari ma'lumotlarni tahlil qilish va prognoz tuzishda yuqori samara beradi. U logistikada talabni bashorat qilish, marshrutlarni optimallashtirish, texnik xizmat ko'rsatish muddatlarini oldindan belgilash va operasion qarorlarni avtomatlashtirishda qo'llaniladi.

5. Narsalar interneti (IoT). IoT turli qurilma, uskuna va transport vositalarini yagona tarmoqqa ulash imkonini beradi. Bu orqali ularning texnik holatini kuzatish,

ish samaradorligini baholash va profilaktik xizmat ko'rsatish choralari o'z vaqtida amalga oshirish mumkin bo'ladi

6. Sensor texnologiyalari. Sensorlar logistika jarayonlarini real vaqtda nazorat qilish imkonini beradi. Masalan, harorat, namlik, bosim yoki yuk holati kabi parametrlarni avtomatik aniqlab, xavf yuzaga kelganda tegishli choralarni ishga tushiradi.

Korxonalar uchun Logistika 4.0ga o'tish jarayonini bosqichma-bosqich tashkil etish maqsadga muvofiq. Avvalo, hali ham analog shaklda bajarilayotgan va raqamlashtirish orqali sezilarli samara berishi mumkin bo'lgan jarayonlar aniqlanishi lozim. Masalan, ko'plab korxonalarda tovar qabul qilish jarayoni hanz qo'lbola yoki qog'oz asosida amalga oshiriladi. Ushbu jarayonni raqamlashtirish vaqt tejamlkorligi va aniqlikni ta'minlaydi.

Logistika 4.0ni joriy etishda faqat texnologiyaning o'zi yetarli emas. Eng muhim shartlardan biri - xodimlarni o'zgarish jarayoniga jalb etishdir. Korxonahabariyati raqamlashtirish ish o'rinlarini qisqartirish uchun emas, balki mehnat sharoitini yaxshilash va ish samaradorligini oshirish uchun amalga oshirilayotganini to'g'ri tushuntirishi zarur. Shu nuqtai nazardan, kadrlarni qayta tayyorlash, raqamli ko'nikmalarni rivojlantirish va o'zgarishlarni boshqarish siyosati katta ahamiyat kasb etadi.

Yirik korporasiyalar raqamlashtirish bo'yicha maxsus bo'lim va mutaxassislariga ega bo'lsa, kichik va o'rta biznes sub'ektlarida bunday imkoniyatlar cheklangan. Shu sababli ular tashqi maslahatchilar, integratorlar va ta'lim dasturlaridan foydalanishi maqsadga muvofiq. Biroq tashqi ko'mak bilan bir qatorda, tashkilot ichida ham mazkur jarayonni boshqara oladigan malakali kadrlar bo'lishi zarur.

Logistika 4.0 konsepsiyasi to'rtinchi sanoat inqilobi (Industry 4.0) g'oyalari asosida shakllangan bo'lib, logistika jarayonlarini raqamlashtirish, avtomatlashtirish va intellektualashtirishga qaratilgan zamonaviy boshqaruv modelini ifodalaydi. Mazkur konsepsiya ta'minot zanjiri ishtirokchilari o'rtasida real vaqt rejimida axborot almashinuvini ta'minlash, logistika operatsiyalarini optimallashtirish va xarajatlarni kamaytirishga xizmat qiladi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, an'anaviy logistika tizimlarida ma'lumotlar almashinuvi ko'pincha qo'lda amalga oshiriladi, bu esa vaqt yo'qotishlari va xatolar sonining ortishiga olib keladi. Logistika 4.0 texnologiyalari esa barcha logistika jarayonlarini yagona raqamli platformaga integratsiyalash imkonini beradi. Natijada yuklarning harakati, ombor zaxiralari, transport vositalari va buyurtmalar holati real vaqt rejimida nazorat qilinadi.

1-jadval

An'anaviy logistika va Logistika 4.0 ning qiyosiy tavsifi

Ko'rsatkich	An'anaviy logistika	Logistika 4.0
Ma'lumotlarni qayta ishlash	Qo'lda yoki qisman avtomatlashtirilgan	To'liq raqamlashtirilgan
Qaror qabul qilish	Inson omiliga bog'liq	Sun'iy intellekt asosida
Ombor boshqaruvi	An'anaviy nazorat	Aqlli ombor tizimi
Transport monitoringi	Davriy nazorat	Real vaqt monitoringi
Yetkazib berish aniqligi	O'rtacha	Yuqori
Xarajatlar darajasi	Yuqori	Nisbatan past

Jadval ma'lumotlari Logistika 4.0 texnologiyalarining logistika operatsiyalarini yanada samarali tashkil etish imkonini berishini ko'rsatadi. Ayniqsa, ma'lumotlar

almashinuvining tezlashishi va real vaqt monitoringi logistika jarayonlarining uzluksizligini ta'minlaydi.

Logistika 4.0 ning asosiy texnologik elementlari sifatida narsalar interneti (IoT), katta ma'lumotlar (Big Data), sun'iy intellekt (AI), bulutli texnologiyalar, blokcheyn, robototexnika va avtomatlashtirilgan transport tizimlari e'tirof etiladi. Ushbu texnologiyalar logistika operatsiyalarini yanada aniq va tezkor boshqarish imkoniyatini yaratadi.

2-jadval

Logistika 4.0 texnologiyalari va ularning vazifalari

Texnologiya	Asosiy vazifasi
IoT	Yuk va transport vositalarini kuzatish
Big Data	Ma'lumotlarni tahlil qilish va prognozlash
Sun'iy intellekt	Optimal marshrutlarni tanlash
Bulutli texnologiyalar	Ma'lumotlarni saqlash va almashish
Blokcheyn	Axborot xavfsizligini ta'minlash
Robototexnika	Ombor operatsiyalarini avtomatlashtirish
Dronlar	Tezkor yetkazib berishni amalga oshirish

Tahlillar natijasida aniqlanishicha, rivojlangan mamlakatlarda IoT texnologiyalaridan foydalanish yuklarni kuzatish aniqligini sezilarli darajada oshirgan. Sensorlar yordamida yuklarning joylashuvi, harorati, namligi va boshqa muhim ko'rsatkichlari real vaqt rejimida nazorat qilinmoqda. Bu ayniqsa oziq-ovqat, farmatsevtika va tez buziluvchi mahsulotlar logistikasida muhim ahamiyat kasb etadi.

Sun'iy intellekt texnologiyalari logistika tizimlarida prognozlash va qaror qabul qilish sifatini yaxshilamoqda. AI algoritmlari transport oqimlarini tahlil qilib, eng optimal marshrutlarni tavsiya etadi, yoqilg'i sarfini kamaytiradi va yetkazib berish muddatlarini qisqartiradi. Natijada

Jahon amaliyoti tahlili Germaniya Logistika 4.0 konsepsiyasining yetakchi markazlaridan biri ekanligini ko'rsatmoqda. Ushbu mamlakatda aqlli logistika markazlari, avtomatlashtirilgan omborlar va robotlashtirilgan yuk tashish tizimlari keng qo'llanilmoqda. AQSHda esa Amazon, UPS va FedEx kabi kompaniyalar sun'iy intellekt va robototexnika asosida logistika operatsiyalarini boshqarib kelmoqda. Xitoyda esa Alibaba va JD.com kompaniyalari dronlar hamda avtomatlashtirilgan logistika markazlaridan samarali foydalanmoqda.

O'zbekiston logistika tizimi tahlili shuni ko'rsatadiki, mamlakatda logistika infratuzilmasini modernizatsiya qilish bo'yicha muhim ishlar amalga oshirilmoqda. Biroq logistika markazlarining raqamlashtirish darajasi, avtomatlashtirilgan ombor tizimlari va sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish ko'lami hali rivojlangan davlatlar darajasiga yetmagan. Shu sababli Logistika 4.0 elementlarini joriy etish logistika xarajatlarini kamaytirish va tranzit salohiyatini oshirishning muhim omili bo'lib xizmat qilishi mumkin.

3-jadval

O'zbekistonda Logistika 4.0 ni joriy etishning ustuvor yo'nalishlari

Yo'nalish	Kutilayotgan natija
Aqlli ombor tizimlari	Ombor xarajatlarini kamaytirish

GPS va IoT monitoringi	Yuklarni real vaqt rejimida kuzatish
ERP va TMS tizimlari	Logistika jarayonlarini integratsiyalash
Sun'iy intellekt	Marshrutlarni optimallashtirish
Elektron hujjat aylanishi	Vaqt va xarajatlarni qisqartirish
Blokcheyn texnologiyasi	Shaffoflik va xavfsizlikni oshirish

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, Logistika 4.0 logistika tizimlarining samaradorligini oshirish, xarajatlarni kamaytirish va xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilashda muhim vosita hisoblanadi. Raqamli texnologiyalar asosida logistika jarayonlarini boshqarish korxonalariga tezkor va aniq qarorlar qabul qilish imkonini yaratadi. Shu bilan birga, Logistika 4.0 ni muvaffaqiyatli joriy etish uchun zamonaviy infratuzilma, malakali kadrlar va axborot texnologiyalariga investitsiyalar hajmini oshirish zarur.

Umuman olganda, Logistika 4.0 kelajak logistikasining asosiy modeli sifatida namoyon bo'lib, ta'minot zanjirlarining raqamli transformatsiyasini ta'minlaydi. Ushbu konsepsiyani amaliyotga joriy etish korxonalar va mamlakat iqtisodiyotining logistika samaradorligini oshirishga, xalqaro raqobatbardoshlikni kuchaytirishga va barqaror iqtisodiy rivojlanishga xizmat qiladi.

Logistika 4.0ning yorqin namunalaridan biri sifatida Mercedes-Benz kompaniyasini keltirish mumkin. Ushbu korxonada yig'ish liniyalari haydovchisiz transport tizimlari bilan almashtirilgan, katta ma'lumotlar tahlili esa logistika jarayonlarini yanada takomillashtirishga xizmat qilmoqda. Barcha ishtirokchilar — ishlab chiqaruvchi, yetkazib beruvchi, logistika operatori va mijozlar — yagona tarmoqqa ulangan. Bu esa ta'minot zanjiridagi og'ishlarni barvaqt aniqlash va tezkor chora ko'rish imkonini beradi. Tahlil natijalariga ko'ra, Logistika 4.0 quyidagi natijalarni ta'minlaydi:

- logistika operatsiyalarining tezligi va aniqligi oshadi;
- inson omili bilan bog'liq xatolar kamayadi;
- ta'minot zanjirida shaffoflik va nazorat kuchayadi;
- xarajatlar qisqaradi;
- bozor o'zgarishlariga moslashuvchanlik oshadi;
- korxonalarining raqobatbardoshligi mustahkamlanadi;
- barqaror va chidamli logistika tizimi shakllanadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Logistika 4.0 zamonaviy logistika tizimlarining strategik rivojlanish yo'nalishi hisoblanadi. U raqamli texnologiyalar, avtomatlashtirish va intellektual boshqaruv yechimlarini birlashtirgan holda logistika jarayonlarini yuqori samaradorlikka olib chiqadi.

Sun'iy intellekt, IoT, RFID, katta ma'lumotlar va sensor texnologiyalari kabi yechimlar nafaqat operatsion jarayonlarni takomillashtiradi, balki butun ta'minot zanjirida shaffoflik, tezkorlik va ishonchlilikni ta'minlaydi. Shu bilan birga, mazkur o'zgarishlarni samarali amalga oshirish uchun kadrlar malakasini oshirish, tashkilot ichida raqamli madaniyatni shakllantirish va bosqichma-bosqich joriy etish muhim ahamiyatga ega.

Kelajakda Logistika 4.0 tendensiyalari yanada chuqurlashib, avtonom transport, robototexnika, dronlar, prognozli tahlil va raqamli ta'minot zanjiri boshqaruvi sohasida yangi imkoniyatlarni yaratadi. Shu jihatdan qaraganda, Logistika 4.0 — bu shunchaki texnologiyalar majmuasi emas, balki logistika sohasining kelajak modeli hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abduxalikova, Komila. "TRANSPORT LOGISTIKA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING MAMLUKAT IQTISODIYOTI RIVOJIDAGI O'RNI." *MUHANDISLIK VA IQTISODIYOT* 4.5 (2026).
2. Абдухаликова, Комила Абдухаликовна. "ЛОГИСТИКА ХИЗМАТЛАРИДА СТРАТЕГИК РЕЖАЛАШТИРИШНИНГ МОЎЖИЯТИ ВА АҲАМИЯТИ." *Global Conference on Medical and Health Sciences*. Vol. 1. No. 2. 2026.
3. Abdukhalikova, Komila. "Entrepreneurship AND Business Management in Uzbekistan." *Green Economy and Development* 3.11: 667469.
4. Каланова М. Б. ОПТИМИЗАЦИЯ НА ОСНОВЕ ЭКОНОМЕТРИЧЕСКОЙ МОДЕЛИ ПОВЫШЕНИЯ КАЧЕСТВА УСЛУГ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ ОБЩЕСТВЕННОГО ПИТАНИЯ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН //Вестник Московского университета имени СЮ Витте. Серия 1: Экономика и управление. – 2021. – №. 4 (39). – С. 68-75.
5. Каланова М. УМУМИЙ ОВҚАТЛАНИШ КОРХОНАЛАРИДА КЎРСАТИЛАДИГАН ХИЗМАТЛАР СИФАТИНИ БАҲОЛАШ //Iqtisodiyot va ta'lim. – 2021. – №. 4. – С. 391-396.
6. Akbarovna S. M., Raimovich R. R. TRANSPORT STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQUISHNING O'ZIGA XOS JHATLARI //Journal of marketing, business and management. – 2026. – T. 4. – №. 7. – С. 213-218.
7. Akbarovna, Sharopova Marjona, and Husanov Sardor Mahmud O'G'Li. "TRANSPORT TURINI TANLASHGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR TAHLILI." *Journal of marketing, business and management* 4.7 (2026): 225-230.
8. Akbarovna S. M., Ugli S. L. T. ANALYSIS OF FACTORS INFLUENCED ON THE CHOICE OF TRANSPORT TYPE //Journal of marketing, business and management. – 2026. – T. 4. – №. 7. – С. 249-253.
9. Akbarovna S. M., O'G'Li H. M. T. TRANSPORT STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQUISHNING TARKIBIY QISMLARI //Journal of marketing, business and management. – 2026. – T. 4. – №. 7. – С. 207-212.
10. Akbarovna S. M., O'G'Li A. F. S. TAQSIMOT LOGISTIKASIDA TRANSPORT FAOLYATINING SALBIY OMILLARI //Journal of marketing, business and management. – 2026. – T. 4. – №. 7. – С. 200-206.
11. Akbarovna S. M., Qizi Z. G. S. TRANSPORT STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQUISHNING ASOSIY MASALALARI //Journal of marketing, business and management. – 2026. – T. 4. – №. 7. – С. 219-224.
12. Islamovna U. Z., Toirxonovna A. M. Development of the tourism and recreation complex as an effective lever for the restoration of the tourism sector in Uzbekistan after the pandemic //Solid State Technology. – 2020. – T. 63. – №. 4. – С. 5193-5206.
13. Тангиров, Абдухолик Эгамович. "РАҲБАР МЕҲНАТИ ВА УНИНГ

НАТИЖАСИ." Journal of marketing, business and management 3.3 (2024): 6-11.

14. Тангиров, Абдухолик. "КОРПОРАТИВ БОШҚАРУВ ОРГАНЛАРИ ВА УЛАРНИНГ ФАОЛИЯТИНИ БАҲОЛАШ." Innovatsion texnologiyalar 49.01 (2023): 112-116.

15. Тангиров, Абдухолик Эгамович, and Дилшод Кенжабой Ўғли Чиникулов. "АХБОРОТ БИЗНЕС-МОДЕЛИ ВА УНИНГ АСОСИЙ ЭЛЕМЕНТЛАРИ." Academic research in educational sciences 4.SamTSAU Conference 1 (2023): 274-280.